



# Muhammad Rizo Ogahiy G'azallarida Badiiy San'atlarning Qo'llanishi

**Xolmatova Shahnoza Axatidin qizi**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, Koreys-Ingliz yo'nalishi talabasi.

xolmatovashahnoza@393gmail.com

**Ilmiy rahbar: Abbasova Dilfuza**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

**Annotasiya:** Mumtoz o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Rizo Ogahiy g'azallarini tahlil qilish orqali shoir mahoratiga yuksak baho berish mumkin. Ushbu maqolada shoir qalamiga mansub "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devonidagi g'azallardan ayrim baytlar tanlab olinib, unda ishlatilgan badiiy san'at vositalari hamda ular yordamida ifodalangan ma'nolar olami ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy san'at vositasi, she'r, g'azal, ma'no, istiora, tazod, talmeh.

Mumtoz o'zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri bo'lgan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy zamonasining peshqadam shoiri tarixchisi va tarjimoni sifatida o'zidan g'oyatda katta adabiy meros qoldirgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zigacha bo'lgan adabiyotimizga umumiy nazar tashlab, o'zbek shoirlari ichida eng "ko'p va xub" she'r aytgan shoir deb Alisher Navoiyni ko'rsatgan edi. Shu ixcham adabiy jumla nuqtai nazaridan Boburdan


keying davrda ijod qilgan barcha ijodkorlar merosini ko'zdan kechirib, o'zida mana shu ikki belgini mujassam etgan, ya'ni ham ko'p ham xub (yaxshi, barchaga manzur) she'r yozgan shoirni tanlash zaruriyati tug'ilib qolsa, shubhasiz, birinchi navbatda Muhammad Rizo Ogahiyga to'xtash kerak bo'ladi. Chunki qoldirgan ijodiy merosining hajmi, adabiyotimiz va madaniyatimiz oldida qilgan xizmatlari, tarixnavislik hamda tarjimashunoslik sohalarini rivojlantirishdagi salohiyati, shaxsiy iqtidori, badiiy iste'dodi va ash'ordagi so'z qudrati jihatidan Alisher Navoiydan keyin milliy adabiyotimiz tarixida Muhammad Rizo Ogahiyning oldiga tushadigan ijodkor topilmasligi shubhasiz.

Ogahiy yaratgan barcha she'rlar "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") deb atalgan devonga jamlangan. Ushbu devon Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz talabi va taklifi bilan shoirning o'zi tomonidan 1872-yilda tuzilgan. Ushbu devonga shoirning 20 ming misradan ortiq she'rlari kiritilgan bo'lib, ularning 1300 misraga yaqini forschada bitilgan. Ogahiy yaratgan she'rlar orasida g,,azal janri muhim o'rinn egallaydi. Ogahiy g'azallari mavzusining xilma-xilligi va dolzarbliji, uslubiyati, badiiy san'at turlaridan ustalik bilan foydalanilganligi bilan boshqa ijodkorlar lirikasidan ajralib turadi. G'azallardan bir necha baytlarni tahlil qilish yordamida Ogahiy uslubiyatini o'rganish mumkin.

Davlati vaslidin el ichra Sulaymonlig' topib,

Halqai baxti qavi ilkimda xotamdur mango.

"Mango" radifli g'azalidan olingan ushbu baytda "Sulaymonlig," so'zi



Qo'llanganligi tufayli talmeh san'ati yuzaga kelgan. Talmeh – baytda tarixiy yoki afsonaviy shaxslar va joy nomlarini qo'llash san'ati. Sulaymon alayhissalom – Qur'oni Karimda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri. Bu zotga Haq taolo tomonidan shamol hamda jinlar olami bo'ysundirib berildi, qo'lidagi uzuk orqali esa barcha hayvonlar tilini tushunmoqlik inoyati hadya etildi. Baytda lirk qahramon yorning "davlati vaslidin", ya'ni "yorning jamolidan" el ichida Sulaymondek baxt topganligini aytmoqda. Ushbu baxt esa lirk qahramonning "ilkida" (qo'lida) xuddi "xotamdek" (saxiy insondek) marhamat ko'rgazmoqda. Yor vasli orqali oshiqning qo'liga Sulaymon alayhissalom erishgan baxtni tutqazmoqda deyish mumkin.

Gisularimu ul yuz ustida makon etkan,  
Ganj uzra va yo ikki ajdarmu ekan oyo.

"Oyo' radifli g'azalidan olingan bu baytda istiora san'ati qo'llanilgan. "Istiora" arabcha so'z bo'lib, "biror narsani omonatga olmoq" degan ma'noni anglatadi. Istiora baytda o'xshatilayotgan shaxs yoki predmetning tushib qolib, faqatgina O'xshayotgan narsaning o'zi kelishidir. Masalan, birinchi misrada "gisu, ya'ni "soch" G'azalda tasvirlanayotgan yorning yuzi ustida makon etgan. Ikkinci misrada esa ana shu soch ikki ajdarga o'xhatilmoxda va sochning o'zi baytda kelmasdan faqat ajdar so'zining o'zi qo'llanmoqda. Ya'ni "ajdardek gisu" yoki "ajdar kabi soch" demasdan, "ikki ajdarmu ekan" deyilmoxda.

Masih nutqimu o'lgan tanimg'a jon bergan,  
Va yo labi aro guftormu ekan oyo.

Ushbu baytda ikkita badiiy san'at, ya'ni talmeh va tajohuli orif qo'llangan.

Talmeh qo'llanilishiga sabab baytning birinchi misrasida Qur'oni karimda nomi zikr etilgan nabiylardan biri Iso alayhissalomning laqabi – "Masih" so'zi qo'llanmoqda.

"Masih" so'zi "jon ufuruvchi", "tiriltiruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Rivoyatlarga Ko'ra, Iso payg'ambarning davosiz xastalarni davolay oladigan xususiyati bo'lgan ekan. Baytda ham lirk qahramonning jonsiz taniga xuddi Iso Masih kabi jon ato etgan yorning nutqi haqida gap ketmoqda. Ikkinci misrada esa shoir o'zini bilib bilmaslikka olish san'ati – tajohuli orifni qo'llagan. Bu badiiy san'at turida birinchi misrada aytilgan fikrni to'ldirish maqsadida boshqa fikr aytiladi. Birinchi misradagi

"Masih nutqi" ikinchi misradagi "labi aro guftor" so'zi bilan to'ldiriladi. O'z navbatida shoir o'ziga eshitilgan yor so'zlarining Iso Masihning nuqtasi yoki lab orasidan chiqqan jumla ekanligini bilolmaslikka soladi va baytda o'ziga xos she'riy husn jilolanadi.

Ul qaro ko'z boqmasa, baxting qarosi bo'lmas oq,


Bu qaro yetmish oning ko'zi qarosidin sango.

Bu baytda ham ikki xil badiiy san'at turi, ya'ni tazod va takrir ishlatilgan.

"Tazod" so'zi arabchada "qarshilantirish", "ziddlantirish" degan ma'noni anglatadi.

Birinchi misrada "qaro" va "oq" so'zlari bo'lganligi bois bu yerda tazod san'ati vujudga kelgan. Baytning har ikkala misrasida to'rt marotaba ishlatilgan "qaro" so'zi orqali esa "takrir" san'ati yuzaga kelgan. She'rda u yoki bu so'zni takror qo'llash san'atiga takrir (arabcha – "takrorlash") deyiladi.

Ey hakim, etma davokim, jon aro



Ishq dardi bedavosidur mango.

Ushbu baytda ham ikki badiiy san'at turi – nido va tazod ishlatilgan. Nido – biror shaxs yoki narsaga his-hayajon bilan murojaat etish. Bunda ko'pincha undalmalardan foydalaniladi. Masalan, birinchi misradagi "ey hakim" so'zi nido san"atini yuzaga keltiradi. Bunda lirik qahramon hakim (tabib) ga murojaat etmoqda. Birinchi misradagi "davo" hamda ikkinchi misradagi "dard" va "bedavo" so'zлari orqali esa tazod san'atining qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Baytda lirik qahramon hakimga murojaat etib jon aro kirgan ishq dardiga davo yo'qligini uqtirmoqda.

Bazmi vaslidin na hosil no'sh la'li etmasa,

Jannat ahlig'a na haz gar bo'lqa kavsardin judo.

"Judo" radifli g'azalidan olingen bu misralarda tanosub san'ati qo'llangan. Tanosub – she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Biror narsani o'ylaganimizda, ko'z oldimizga uning belgilari, xususiyatlari keladi. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda uning bilan bevosita bog'liq ko'z, qosh, lab, og'iz kabilar xayolda jonlanadi. Bir manzarani shular yordamidagina to'laroq tasavvur qilamiz. She'riyatda ham shunday. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi. Baytning ikkinchi misrasidagi "jannat" va "kavsar" so'zлari vositasida ham tanosub san'ati yuzaga kelgan. Jannat – ko'pchilik diniy ta'limotlarga ko'ra, taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat va farog'atda yashaydigan joy. Kavsar esa islam aqidasiga ko'ra jannatdagi ajib bir daryo yoki hovuzning nomi. Qur'oni Karimdag'i 108-sura ham "Kavsar" deb ataladi. Tafsir va hadislarda aytishicha Kavsarning suvi asaldan totli, qor va sutdan oq bo'lib, undan ichgan kishi abadiy tashnalik bilmaydi. Shoir baytda "no'sh la'li" bo'lmasa, yorning vaslidan foya yo'qligini, bu narsa xuddi jannat ahlining Kavsardan judoligi bilan barobar ekani haqida aytmoqda.

Yaxshidur o'lqa yaxshi bilan muxtalit yomon,


Yaxshi yomondur etsa yomon birla ixtilot.

"Ixtilot" radifli g'azalidan olingen ushbu baytda anafora badiiy san'ati Qo'llangan. Anafora – banddagi misra, gaplarning boshidagi so'z yoki so'z birikmasining boshqa misralar boshida ham takrorlanib kelishi orqali hosil qilinadigan badiiy san'atdir. Baytdagi "yaxshidur" hamda "yaxshi" so'zлari orqali anafora yuzaga kelgan. Shuningdek, "yaxshi" va "yomon" so'zlarining har ikki misrasida ham ishlatilishi orqali tazod ham qo'llanilgan. G'azaldagi "ixtilot" so'zi "aralashish", "bordi-keldi qilish" degan ma'nolarni anglatadi. Baytdagi ma'no budir: yomon insonning yaxshi bilan aralashishi yaxshidur, chunki bunda yomonning ham yaxshiga aylanish ehtimoli bor. Ammo yaxshi insonning yomon bilan yurishi, uning ishlariga aralashishi oqibatida yaxshining ham yomonga aylanish ehtimoli mavjud.

Ishqing g'amida diydayi giryonima rahm et,

Hajring tunida nolayi afg'onima rahm et,

baytida muvozana san'ati qo'llangan. Bu san'at turi "o'lchov jihatidan tengdoshlik" ma'nosini bildirib, bayt misralaridagi barcha so'zlarning vazn tomonidan o'zaro teng bo'lishini nazarda tutadi. Yuqoridagi baytda ham ishqinqhajring, g'amida-tunida, diydayi-nolayi, giryonima-afg'onima, rahm et-rahm et




so'zlari o'lchov va ohang jihatidan o'zaro teng ekani bilinadi. Misralar ma'nosidan oshiq o'z mashuqasidan uning ishq g'ami yo'lida to'kayotgan yoshlariga va hajr tuni uchun chekayotgan nolalariga rahm etishini aytib, shafqat so'rayotganligi anglashiladi.

Eshit dodimni endi darding o'ldi qosidi jonim,  
Nigorim, mehribonim, makrimat taxtida sultonim,  
baytida esa mashuqa nigorim, mehribonim, sultonim sifatlari bilan vafs qilingan va bu orqali tansiq as-sifat san'ati yuzaga kelgan. Tansiq as-sifat san'ati she'rda tasvirlanayotgan shaxs yoki narsaga xos belgilarni ketma-ket keltirish, ularni bir necha jihatdan tasvirlashni nazarda tutadi.  
Oqil ersang, bo'limg'il g'arra jahon lazzatig'a,  
Ul sifatkim, tifllar ko'rsa bo'lur xursand qand,  
baytida tamsil badiiy san'atining go'zal namunasini uchratish mumkin. Tamsil "misol keltirish" ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misra baytida muvozana san'ati qo'llangan. Bu san'at turi "o'lchov jihatidan tengdoshlik" ma'nosini bildirib, bayt misralaridagi barcha so'zlarning vazn tomonidan o'zaro teng bo'lishini nazarda tutadi. Yuqoridagi baytda ham ishqchinghajring, g'amida-tunida, diydayi-nolayi, giryonima-afg'onima, rahm et-rahm et so'zlari o'lchov va ohang jihatidan o'zaro teng ekani bilinadi. Misralar ma'nosidan oshiq o'z mashuqasidan uning ishq g'ami yo'lida to'kayotgan yoshlariga va hajr tuni uchun chekayotgan nolalariga rahm etishini aytib, shafqat so'rayotganligi anglashiladi.

Eshit dodimni endi darding o'ldi qosidi jonim,  
Nigorim, mehribonim, makrimat taxtida sultonim,  
baytida esa mashuqa nigorim, mehribonim, sultonim sifatlari bilan vafs qilingan va bu orqali tansiq as-sifat san'ati yuzaga kelgan. Tansiq as-sifat san'ati she'rda tasvirlanayotgan shaxs yoki narsaga xos belgilarni ketma-ket keltirish, ularni bir necha jihatdan tasvirlashni nazarda tutadi.

Oqil ersang, bo'limg'il g'arra jahon lazzatig'a,  
Ul sifatkim, tifllar ko'rsa bo'lur xursand qand,  
baytida tamsil badiiy san'atining go'zal namunasini uchratish mumkin. Tamsil "misol keltirish" ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'at turi hisoblanadi. Tamsil uchun, asosan, tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, xalq ommasi hayoti, bolalar o'yinlari, tibbiyot olami, tarbiya jarayoni va boshqa holatlarga oid misollar tanlanadi. Yuqorida keltirilgan bayt misralarida ham shu holatni kuzatamiz. Bunda "bolalar qandni ko'rsa xursand bo'ladi" misoli birinchi misradagi fikrga dalil sifatida keltirilgan. Ya'ni baytdan "oqil bo'lsang, jahon lazzatiga, xuddi bolalar qandni ko'rsa xursand bo'lgani kabi aldanmagin" degan ma'no kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiyning g'azallari o'zida olam-olam ma'noni jamlagan ulkan adabiy merosdir. Tazod, tanosub, tajohuli orif, talmeh, takrir, tashbeh kabi badiiy san'at turlari esa ularning har bir misrasiga o'zgacha jilo berib,



sodda va tushunarli yo'sinda ifodalanishiga xizmat qilgan.

**Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:**

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.;G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971,
2. Safo Matchonov, Sharafjon Sariyev. Adabiyot. T.; "SHARQ" nashriyoti.
3. Ogahiy. Tanlangan asarlar. T. O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov, muharrir R. Majidiy.
4. Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati.-T.:Sharq, 1998.-240b.